


Axborot

Biz axborot olamida yashayapmiz. Biz uni beshta sezgi a'zomiz orqali qabul qilamiz. Ko'zimiz bilan predmetlarning rangi, shakli, o'lchami va qanday joylashganini ko'ramiz, quloqlarimiz bilan turli xil tovushlarni eshitamiz, burnimiz bilan hidni, tilimiz bilan ta'mni, terimiz bilan esa issiq va sovuqni his qilamiz. Miyamiz olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va biz xulosalar chiqaramiz.

Axborot atrof-olam haqidagi ma'lumotdir. Olingan ma'lumotlar asosida bir fikrga kelish xulosa deb ataladi.




Dumaloq, nordon ta'mli, limon hidli. Demak, bu limon!




1. Sinfdoshlaringiz bilan musobaqalashing. Ko'zingizni yumgan holda sizga taklif qilingan predmetni topishga harakat qiling.



2. Inson qanday sezgi a'zosi yordamida eng ko'p ma'lumot qabul qiladi?



3. Predmetni toping. Ko'k, to'g'ri to'rtburchak shaklida, qattiq, qog'ozdan yasalgan, varaqlash va o'qish mumkin.



4. Savollarga javob bering.

- Axborot nima?
- Xulosa nima?
- Odamda qanday sezgi a'zolari bor?

